

**O‘ZBEK TILI O‘RGANUVCHILARIDA MADANIY METAFORALARNING
INGLIZ TILI IDIOMALARINI TUSHUNISHGA TA’SIRI**

Rayxona Bektosheva

Shahrisabz Davlat Pedagogika Instituti talabasi

Tel: (93) 902-21-17

E-mail: rayxonabektosheva@gmail.com

Allayarova Zebiniso Boymuratovna

Shahrisabz davlat pedagogika instituti Xorijiy til til nazariyasi

kafedrası mudiri PhD dotsent

Tel.:+99890 352-30-

E-mail: zeboallayorova51@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur tezisda o‘zbek tilida so‘zlashuvchi ingliz tili o‘rganuvchilarining ingliz tilidagi idiomalarni tushunish jarayonida madaniy metaforalarning ahamiyati tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, idiomatik birliklarni to‘g‘ri anglash uchun faqat lingvistik bilim yetarli emas, balki madaniy kontekstni tushunish ham muhim hisoblanadi [1], [2]. Madaniy komponent asosida o‘qitilgan o‘rganuvchilarning natijalari yuqoriroq ekanligi aniqlangan.

Kalit so‘zlar: madaniy metafora, idiomalar, ingliz tili, til o‘rganish, semantika.

KIRISH

Bugungi globallashuv zamonida xorijiy, chet tillarini o‘rganish jarayonida nafaqat grammatik va leksik bilimlar, balki madaniy bilimlar ham muhim ahamiyatga egadir [3]. Ayniqsa, ingliz tilidagi idiomalar tilning milliy-madaniy xususiyatlarini o‘zida mujassam etgani uchun ularni tushunish ko‘pchilik til o‘rganuvchilari uchun muammolar tug‘diradi va murakkablikni keltirib chiqaradi [1]. Idiomalar, ko‘pincha, metaforik xarakterga ega bo‘lib, ularning ma‘nosi to‘g‘ridan-to‘g‘ri tarjima orqali anglashilmaydi. Masalan, “break the ice” iborasi yuzaki qaraganda “muzni sindirmoq” degan ma‘noni anglatsa-da, aslini olganda “suhbatni boshlash” degan ma‘noni bildiradi [2. 45].

Metodlar. Mazkur tadqiqotda 40 nafar o‘zbek o‘rganuvchilari ishtirok etdi. Ular ikki guruhga bo‘linishdi: tajriba va nazorat guruhi. Tajriba guruhiga idiomalar madaniy kontekst asosida tushuntirildi, nazorat guruhiga esa faqat tarjima va qisqa izoh berildi [4]. Tadqiqot materiali sifatida 15 ta ingliz tili idiomasi tanlab olindi. Ushbu idiomalar madaniy metaforaga ega va kundalik nutqda keng qo‘llaniladigan birliklar sifatida tanlandi [5]. Qatnashuvchilarga test topshiriqlari berilib, ularning natijalari foizlarda baholandi.

Natijalar. Tadqiqot natijalari quyidagicha bo‘ldi va shuni ko‘rsatdi:

Tajriba guruhi	78% to‘g‘ri javob
Nazorat guruhi	52% to‘g‘ri javob

Bu natijalar madaniy tushuntirish asosida o‘rganish va o‘qitish samaraliroq ekanligini ko‘rsatdi. Ayniqsa, metaforik asosga ega idiomalarda farq sezilarli bo‘ldi [6]. Shuning uchun, xorijiy idiomalarni o‘rganishda va o‘qitishda ularning madaniy kelib chiqishi hamda qo‘llanilishini bilish muhim ahamiyat kasb etadi.

Muhokama. Natijalar shuni ko'rsatadiki, idiomalarni tushunishda madaniy metaforalar hal qiluvchi rol o'ynaydi. U holat kognitiv lingvistika nazariyalari bilan ham tasdiqlanadi, chunki inson tafakkuri metaforik tizimga asoslanadi [2]. O'zbek o'rganuvchilari ko'pincha idiomalarni literal, ya'ni adabiy va to'g'ridan-to'g'ri tarjimalar orqali anglashga harakat qiladi, bu esa xatolarga olib kelishi mumkin. Madaniy kontekstni o'qitish esa o'rganuvchilarning semantik tafakkurini kengaytiradi va ularning tilni chuqurroq anglashiga yordam beradi [7].

Xulosa. Xulosa qiladigan bo'lsak, ingliz tilidagi idiomalarni o'rganish va o'qitish uchun madaniy metaforalarni hisobga olish zarur. Til o'qitish jarayonida madaniy komponentni integratsiya qilish o'rganuvchilarning natijalarini sezilarli darajada yaxshilaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Fernando, C. (1996). *Idioms and Idiomaticity*. Oxford University Press.
2. Lakoff, G., & Johnson, M. (1980). *Metaphors We Live By*. University of Chicago Press.
3. Crystal, D. (2003). *The Cambridge Encyclopedia of the English Language*. Cambridge University Press.
4. Ellis, R. (2003). *Task-based Language Learning and Teaching*. Oxford University Press.
5. Kövecses, Z. (2010). *Metaphor: A Practical Introduction*. Oxford University Press.
6. Boers, F. (2000). Metaphor awareness and vocabulary retention. *Applied Linguistics*, 21(4), 553–571.
7. Littlemore, J. (2009). *Applying Cognitive Linguistics to Second Language Learning*. Palgrave Macmillan.